

Gerbisid emas – haqiqiy bomba!

- ikki pallali begona o'tlarning juda ko'p turlarini samarali nazorat qiladi
- chaqamiq (qumri o't) begona o'tini rivojlanishining barcha bosqichlarida nazorat qilishning noyob texnologik yechimi
- qo'llash uchun keng «oyna» mavjudligi (ekinda ikki barg fazasidan to ikkita bo'g'in orasi hosil bo'lishiga qadar qo'llash mumkinligi)



Bomba®

Gerbisid

tribenuron-metil, 563 g/kg
+ florasulam, 187 g/kg



Biz bilan yuqorilash yanada oson!

avgust 
crop protection

Bomba® – Gerbisid emas – haqiqiy bomba!

Kuzgi bug'doy dalalaridagi bir va ko'p yillik ikki pallali begona o'tlarning juda ko'p turlariga, jumladan 2,4-D va MCPA ga chidamli begona o'tlarga qarshi kurash uchun qo'llaniladigan, tarkibida ikki xil ta'sir etuvchi modda mavjud bo'lgan gerbisid.

Bomba® ning tarkibiga 563 g/kg tribenuron-metil va 187 g/kg florasulam kiradi. Preparatning ushbu ta'sir etuvchi moddalari har xil kimyoviy sinflarga: tribenuron-metil – sulfonilmochevina hosilari sinfiga, florasulam esa triazolopirimidinlar sinfiga mansub. Gerbisidning preparat shakli – suvda dispersiyalanuvchi granulalar.

Bomba® gerbisidiga begona o'tlarning 100 tadan ko'p turlari (jumladan 2,4-D va MCPA ga chidamli begona o'tlar) yuqori darajada sezgir bo'lib, ular qatoriga qoramashoq, shuvoq bargli ambroziya, lattatikon (turlari), zangori bo'tako'z, fors bo'tako'zi, yorongul (=geran; turlari), gorets (Polygonum; turlari), ekiladigan o'risno'xatcha (goroshek), dala xantali, qora xantal, tatar marjumagi, qurtana (turlari), sassiqkapa, shabbo'ysimon sariq o't, yulduz o't, tatar sutcho'pi (=suttikon, suvyaproq), yovvoyi zig'ir o'ti (turlari), ayiqtovon (turlari), qizg'aldoq, oq olabo'ta, dorivor qoqio't, dala qaylyug'uni, jag'-jag', pikulnik (turlari), chaqamiq, kungaboqar (to'kilgan urug'lardan), zargo'sh, yovvoyi turup, moychechak (=babuna; turlari), dala toritsasi, eshaksho'ra (machin; turlari), dala tlaspisi, yasnotka (turlari) va boshqalar kiradi.

Bomba® ni qo'llash bug'doy dalalarida chaqamiqqa (qumri o'tga) qarshi kurashda eng samarali texnologik yechimlardan biri hisoblanadi.

Bomba® barglar orqali kiradi va begona o't tanasining barcha qismlariga tarqaladi. Ishlovdan keyin bir necha soat so'ngra preparatga sezgir begona o'tlar o'sishdan to'xtaydi, ularning barglari asta-sekin sarg'ayadi (xlorotik bo'lib qoladi), o'suv nuqtasi nobud bo'ladi. Ishlovdan keyin 2-3 hafta so'ngra begona o'tlar to'la nobud bo'ladi. Begona o'tlar o'sishdan to'xtashining tezligi ishlov berish vaqtidagi ob-havo sharoitlariga (namlik, harorat), begona o'tlar turlari tarkibiga va ularning osish bosqichlariga bog'liq.

Bomba® ni qo'llashda begona o'tlarda preparatga chidamlilik hech qachon hosil bo'lmaydi.

Qo'llash reglamentlari

Ekin	Preparat sarf-meyori, g/ga	Qo'llash usuli va muddatlari
Kuzgi bug'doy	20 - 30	Ekinga tuplash va ikkinchi bo'g'in orasi paydo bo'lishi fazalari orasida va begona o'tlar o'sishining erta fazalarida bir marta purkaladi. Issiq va quruq ob-havoda Adyu® SFM bilan birga qo'llash lozim

© – "Avgust" AJ firmasining ro'yxatga olingan tovar belgisi.

«Avgust Aziya» QK MCHJ

Tel: (+998) 97-918-00-88

Avgust Kompaniyasining O'zbekistondagi rasmiy

Distributori «SAM AGRO CENTER» MCHJ

Tel: (+998) 99-541-44-44

Bomba® preparatining eng yuqori samarasi ishlovlar bir yillik ikki pallali begona o'tlar rivojlanishining erta bosqichlarida – 2-6 barg fazasida (bo'yi 5-10 sm bo'lganida), ko'p yillik, bachki ildizli begona o'tlar rivojlanishining rozetka – poya o'sishi fazalari boshlarida o'tkazilganida olinadi. Ekin begona o'tlar bilan oldindan kuchli zararlanganida, dalada bachki ildizli begona o'tlar ko'p bo'lganida, begona o'tlarning bo'yi kuchli o'sib ketganida (chaqamiqning bo'yi 15-20 sm, moychechakniki 20 sm gacha, qaylug'un va lattatikon turlari – shonalashgacha) preparatning maksimal me'yorlarini qo'llash kerak bo'ladi. Begona o'tlarning soni ko'p bo'lsa, yo'qotilishi qiyin bo'lgan begona o'tlar mavjud bo'lsa, dalada o'simliklar tup soni kam bo'lsa hamda ob-havo issiq va quruq bo'lsa gerbisidning samarasini ko'tarish uchun uni Adyu® (Адью®) SFM bilan birga qo'llash lozim, bunda begona o'tlar ishchi eritma bilan qoplanishi va preparatning gerbisidlik ta'siri sezilarli darajada yaxshilanadi. Adyu® ning sarf-me'yori 0,2 L/ga (ishchi eritma hajmining 0,1% ga teng).

Preparatni 2,4-D (amin tuzi yoki efir) va dikamba asosli gerbisidlar bilan birga qo'llash mumkin. Bomba® ni Balerina® va Demetra® gerbisidlari bilan bak aralashmalar shaklida ishlatish tavsiya qilinadi. Preparatni fosfororganik insektisidlar bilan birga qo'llash mumkin emas, yoki ishlovlar orasidagi vaqt 14 kundan kam bolsa ham, fitotoksiklik ehtimoli mavjud bolishi tufayli, ular bilan gallab qo'llash mumkin emas. Gerbisidning ishchi eritmasi bevosita purkashdan oldin tayyorlanadi.

Muhim! Adyu® purkash bakiga oxirgi navbatda qo'shiladi, aks holda, yopishtiruvchi solinganida juda ko'p miqdorda ko'pik hosil bo'lib, eritmaning bir qismi purkagichning bakidan toshib, chiqib ketishi mumkin.

Preparatni qo'llashda almashlab ekish bo'yicha cheklovlar yo'q. Bomba® ning qoldiq ta'siri yo'qligi uchun uni har qanday almashlab ekish tiplarida qo'llash mumkin.

Ishchi eritma sarf-meyori – 50-300 L/ga.

Bomba® hajmi 100 g va 300 g bo'lgan flakonlarda ishlab chiqariladi.

avgust 
crop protection